



## BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI TA'LIM OLISHLARIDA TEXNOLOGIK JARAYONLAR VA ZAMONAVIY STRATEGIYALAR

*Tursunaliyeva M. V.*

*Andijon davlat universiteti*

*Musiqiy talim kafedrasida o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** innovatsiya, jarayon, yangilik yaratish, tuzilma, bloklar, tiplar, yondashuvlar.

**Ключевые слова:** инновация, процесс, инновация, структура, блоки, методы, подходы.

**Key words:** innovation, process, innovation, structure, blocks, methods, approaches.

Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasini ilgari surgan. U ta'limni "texnikaviy" qilishga undagan, ya'ni hamma narsa nimaga o'qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo'lsin. Natijaga olib keluvchi o'quv jarayonini, u "didaktik mashina" deb atagan. Bunday didaktik mashina uchun aniq qo'yilgan maqsadlar; bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan edi. Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 1950-yillarda birinchi urinishlar qilib ko'rilgan. Ular o'z ifodasini an'anaviy o'qitish uchun mo'ljallangan majmualar texnik vositalarning yaratilishida namoyon qiladi.

Hozirgi vaqtda «musiqa o'qitish texnologiyasi va loyihalash» ta'lim berishning texnik vositalari yoki kompyuterdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmay, balki bu ta'limiy samaradorlikni oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo'li orqali, yo'l va materiallarni tuzish hamda qo'llash, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash orqali ta'lim jarayoni tamoyillarini aniqlash va eng maqbul yo'llarini ishlab chiqishni aniq maqsad qilib olganligidadir. Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I.Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan



turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

### Texnologik jarayonning asosiy komponentlari

Yangi pedagogik texnologiya, ped-texnologik bilim	Ilmiy izlanishlarning yakuni ixtirochilik, tajriba maydonlarining metod birlashmalarining xulosa va takliflari, ilm va fan yutuqlarining natijalari, tushuncha, metodik tavsiyalar
Texnologiyaning paydo bolishi bilan innovatsiyani kiritilishi	Yangi bilimlarni tatbiq etidh natijasi va uni qo'llanilishi bilan takomillashgan sifatli jahon o'quv standart talablariga mos pedagogik texnologiyalarni qo'llashning uslubiy nazariy asoslari.
Diffuziyali texnologiya	Yangilik sifatida o'zlashtirilgan va bir vaqtlar keng tarqalgan, lekin ma'lum ijtimoiy jamiyat sharoiti, texnologik jarayonlarning o'zlashtirilishi.

Tadqiqotchilar (A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiyezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovasion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi.

Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rmini ikkinchisi egallashdir.

Olimlar innovasion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- ▶ Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.
- ▶ Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.
- ▶ Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.
- ▶ Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.
- ▶ Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.
- ▶ Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

V.A.Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi. Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S. Tolstoy) innovasion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.



Birinchi shaklga yangilik kiritishni oddiy ishlab chiqish kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

Ikkinchi shaklga yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir. Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va subyektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

Xususiy yangilik V.A.Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi.

Mahalliy yangilik konkret obyektida yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

Subyektiv yangilik ma'lum obyekt uchun obyektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar. V.I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning boshlanmalarini o'zida aks ettiradi. R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi. Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova innovasion jarayon tuzulmasining uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tadbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;



- ▶ subyektiv tuzilma-innovasion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- ▶ sathiy tuzilma-innovasion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- ▶ mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;
- ▶ bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi – yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - yetuklik – o'zlash tirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) – boyish (to'yinish) – qoloqlik - inqiroz – irradiasiya(aldanish) – zamo naviylashtirish;
- ▶ boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalashtirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;
- ▶ tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

Xulosa qilib aytganda dars jarayonlarida texnologiya va loyihalash - ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim jarayoni, vositalari shakl va metodlari majmuasi. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o'quvchilarni kuchi imkoniyatlari, fanni o'zlashtirish darajasi fanni spesifik tuzilishi xususiyatiga moslab shakli va hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. O'qituvchining ta'lim jarayoni texnologik metodlar asosida tashkil etishi ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liqligi, bilimi ularni har birini tashkiliy tuzilishi xususiyatlarini yaxshi bilishi ta'lim samaradorligi ta'minlashning muhim kafolati bo'ladi. Demak, innovatsion texnologiya insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining - Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori. 2017yil 21 aprel.
2. Azizxodjayeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.: Moliya2003.-192b
3. Aripov M Internet va elektron pochta asoslari.-T.:Iqtisod moliya,2000.-218b.
4. Ishmuxamedov R. Innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.-T.: TDPU.2005y.
5. Karimova D.A. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari.-T.: Iqtisod moliya. 2008y.
6. Martine Fraytag. — Chorleiting – effizint unt lebensyabl. Gustav Boss Verlag, Kassel, Germaniya 2011.

#### РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada musiqa o'qituvchilarini o'qitish faoliyatida texnologik jarayonlar va zamonaviy pedagogik strategiyalar haqida fikr-mulohazalar yurutilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются технологические процессы и современные педагогические стратегии в деятельности учителя музыки.

#### SUMMARY

This article discusses technological processes and modern pedagogical strategies in the activity of teaching music teachers.